



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th September, 2025

TA'LIMDAGI IJTIMOIY TENGLIK: TURKISTONDA XALQ DORILFUNUNI TASHKIL TOPISH MOHIYATI

Rahmatov Muhriddin Azimovich,

tayanch doktorant, Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya

Ushbu maqolada 1917-yilgi Oktabr inqilobidan so'ng Turkistonda tashkil etilgan "Xalq dorilfununi"ning tarixiy ahamiyati va uning musulmonlar uchun ochilgan maxsus sho'basi faoliyati haqida so'z boradi. Maqolada o'sha davrdagi ta'lif sohasidagi ijtimoiy adolat tamoyillari, kambag'al qatlarning ilmiy-ma'rifiy imkoniyatlari, shu bilan bir qatorda, ayollar va yoshlar uchun maxsus maktablar ochilishi hamda amaliy hunarlarni o'rgatish borasidagi ishlar haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, "Xalq dorilfununi"ning jamiyatda ijtimoiy tenglik va ma'rifatning rivojlanishidagi roliga ahamiyat berilgan.

Kalit so'zlar: Xalq dorilfununi, sho'ba, dehqonchilik, komissiya, tarix, Ibtidoiy maktab, me'morchilik

СОЦИАЛЬНОЕ РАВЕНСТВО В ОБРАЗОВАНИИ: СУЩНОСТЬ ОРГАНИЗАЦИИ НАРОДНОГО ДАРУЛЬФУНУНА В ТУРКЕСТАНЕ

Rahmatov Muhriddin Azimovich,

базовый докторант,

Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека,

Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В данной статье рассматривается историческое значение «Народного Дарульфунуна», созданного в Туркестане после Октябрьской революции 1917 года, а также деятельность его специального отделения, открытого для мусульман. В статье освещаются принципы социальной справедливости в сфере образования того времени, возможности научно-просветительской



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th September, 2025

деятельности для малообеспеченных слоёв населения, а также вопросы открытия специальных школ для женщин и молодежи и организация обучения практическим ремёслам. Особое внимание уделяется роли «Народного Дарульфунуна» в развитии социальной равенства и просвещения в обществе.

Ключевые слова: Народный дарульфунун, отдел, земледелие, комиссия, история, начальная школа, архитектура

SOCIAL EQUALITY IN EDUCATION: THE ESSENCE OF THE ESTABLISHMENT OF THE PEOPLE'S DARULFUNUN IN TURKESTAN

Muhriddin A. Rahmatov,

basic doctoral student of National University

Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Tashkent, Uzbekistan

Abstract

In this article the historical significance of the “Khalk Darulfunun,” established in Turkestan following the October Revolution of 1917, as well as the activities of its special branch created for Muslims is discussed. The article provides information on the principles of social justice in the field of education during that period, the scientific and educational opportunities available to the poor strata, and additionally, the establishment of specialized schools for women and youth, along with efforts to teach practical crafts. Furthermore, the article emphasizes the role of the “Khalk Darulfunun” in promoting social equality and the advancement of enlightenment within society.

Index Terms: Khalk Darulfunun, branch, agriculture, commission, history, primary school, architecture

Kirish (Introduction)

Oq podshoh zamonida Rossiyyadagi o‘rta va oliy maktablardan asosan boy qatlam vakillari foydalanar edi. Xalqning quyi qatlam vakillari uchun “dorilfunun” (universitet) kabi oliy o‘quv yurtlari orzuga ham aylanolmasdi. Turkiston o‘lkasi



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th September, 2025

musulmonlari esa bir tomondan hukumat tomonidan tazyiqqa uchragan, ikkinchi tomondan esa ilmning imkoniyatini yetarli anglamagani sababli na madrasalardan, na o‘z maktablaridan to‘laqonli foydalana olganlar.

1917-yil Oktabr inqilobidan so‘ng esa Rossiya imperiyasining mustamlaka xalqlari, xususan, Turkistonliklar uchun yangi imkoniyatlar paydo bo‘la boshladi. Davlat tomonidan xalq uchun bepul ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yildi. Endilikda faqir insonlar ham oliy ta’lim muassasalariga kirish huquqiga ega bo‘ldilar.

Tadqiqot usullari (Methods)

Toshkentda “Xalq dorilfununi” ochildi va unga 30 million so‘m mablag‘ ajratildi. Ushbu dorilfunun barcha Turkiston xalqlari, jumladan, musulmonlar uchun ham tashkil etilgan edi. Shu sababli, Toshkentlik ilg‘or musulmon yoshlari uni musulmonlar ehtiyojiga mos ravishda maxsus sho‘ba shaklida tashkil qilish tashabbusi bilan chiqdi.

Musulmonlar sho‘basi tarkibida ibtidoiy (boshlang‘ich) va o‘rta darajadagi maktablar, shuningdek, san’at va hunar maktablari ochiladi. Ibtidoiy maktablarning ba’zilari o‘g‘il bolalarga, ba’zilari esa xotin-qizlarga mo‘ljallangan bo‘lib, har bir maktabda mutaxassis muallimlar va malakali muallimlar faoliyat yuritgan.

Natijalar (Results)

Toshkentdagi musulmonlar sho‘basi qoshida 10 dan ortiq ibtidoiy maktab va 2 ta hunar maktabi faoliyat yurita boshladi. Unda 75 dan ortiq o‘qituvchi va 700 dan ziyod o‘quvchi tahsil olgan. Ibtidoiy maktablarda o‘quvchilarga ona tili, o‘qish, yozish, hisob, tarix, geografiya, axloq, dehqonchilik, bog‘dorchilik singari amaliy fanlar o‘rgatilgan.[1]

Xotin-qizlar uchun ochilgan maktablarda esa o‘qish va yozish bilan bir qatorda qo‘l mehnati, kasanachilik va hunarlar ham o‘rgatilgan. Sanoyi(hunar) maktablarida esa me’morchilik, najjorchilik (duradgorlik), muqovasozlik kabi kasblar bo‘yicha ta’lim berilgan.

Ushbu darslar mutlaqo bepul olib borilgan va har kuni peshindan keyin uch soat davomida tashkil etilgan. Shu qatorda har payshanba madaniy va siyosiy mavzularda ochiq leksiylar o‘tkazilgan.[2]



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th September, 2025

1918-yil Iyd al-Fitr(amazon hayiti) bayrami munosabati bilan Toshkentdan Samarqandga tashrif buyurgan tatar ma'rifatparvari Muxtor Bakir musulmon yoshlari yig'inida Toshkentdagi musulmonlar sho'basi faoliyati haqida mufassal ma'lumot berdi. Shu yig'inda Samarqandda ham shunday sho'ba tashkil etish taklifi ilgari suradi. Taklif bir ovozdan qabul qilinib, tashkilot komissiyasi tuziladi. Shu vaqtadan boshlab bu komissiya faoliyat olib borib, tez orada Samarqandda ham erkaklar, ayollar va katta yoshdagi aholi uchun ibtidoiy maktablar, san'at va hunar maktablari, qisqa muddatli muallima tayyorlash kurslari ochishni kelishib olinadi.[3]

Ushbu ta'lim tizimi — “Xalq dorilfununi” musulmon xalq uchun beqiyos imkoniyatlар eshagini ochgan. Bu ilm va hunar xazinasи Turkistonning ijtimoiy-ma'naviy yuksalishida beqiyos rol o'ynaydi. Natijada, endi Turkiston yoshlar uchun muhim vazifa — bu imkoniyatlardan oqilona, mas'uliyat bilan foydalanish bo'lgan. O'lkada, xususan, kambag'al oilalarning bolalari ushbu maskanlar orqali savodli, hunarli, ma'rifatli shaxsga aylanishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan edi.[4]

Munozara va Xulosa (Discussion)

Bu ta'lim tizimi musulmon aholining ilm va hunarga bo'lgan ehtiyojini qondirishda muhim qadam bo'ldi. Ayniqsa, kambag'al oilalarning bolalari o'z vaqtida ustalarining uyida yillab xizmat qilib, biror hunar o'rganish o'rniga, bu maktablar orqali qisqa vaqt ichida savod va hunar egasi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Xulosa qilib aytganda, bu “Xalq dorilfununi” Turkiston musulmonlari, ayniqsa quyi qatlam uchun ilm va hunar xazinasiga aylandi. Endilikda xalq uni chin ixlos bilan qadrlashi va undan to'liq foydalanishi zarur edi. Musulmon xalq dorilfununi o'lka musulmonlarni oliy ta'lim olishiga juda katta yordam bergen dargohdir.

Adabiyotlar:

1. O'zMU. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Hoja Muin. Xalq dorulfununi «Mehnatkashlar tovushi» gazetasi, 1918-yil, 23 iyul.
3. Muxtor Bakir. Musulmon xalq dorulfununi rasmiy ochilishi // Ulug' Turkiston. 1918-yil. 16-may.
4. Muxtor Bakir. Xalq dorilfununi // Ulug' Turkiston. 1918-yil 21-may.